

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining I sinfiga qabul qilingan o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda)
- IV.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- V.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.


O'zbekiston Respublikasida 2025/2026- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **11 118 tani** tashkil etgan bo'lib, 2024/2025- o'quv yili boshiga nisbatan **175 taga**, yoki **1,6 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o'quv yili boshiga respublikada faoliyat yuritayotgan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **551 tani** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **96 taga**, yoki **21,1 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni		shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari	
	jami	umumiy soniga nisbatan % da	jami	umumiy soniga nisbatan % da
O'zbekiston Resp.	11 118	100	551	100
Qoraqalpog'iston Resp.	771	6,9	10	1,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	834	7,5	37	6,7
Buxoro	596	5,4	32	5,8
Jizzax	598	5,4	12	2,2
Qashqadaryo	1 294	11,6	31	5,6
Navoiy	387	3,5	5	0,9
Namangan	783	7,1	37	6,7
Samarqand	1 350	12,1	43	7,8
Surxondaryo	1 003	9,0	5	0,9
Sirdaryo	345	3,1	17	3,1
Toshkent	935	8,4	30	5,5
Farg'ona	1 119	10,1	121	22,0
Xorazm	600	5,4	26	4,7
Toshkent sh.	503	4,5	145	26,3

2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Samarqand (**1 350 ta**), Qashqadaryo (**1 294 ta**) va Farg'ona (**1 119 ta**) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**345 ta**), Navoiy (**387 ta**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**503 ta**) kuzatilgan.


Nodavlat umumta'lim tashkilotlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (**145 ta**), Farg'ona (**121 ta**) va Samarqand (**43 ta**) viloyatlarida qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida (har birida **5 tadan**) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**10 ta**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Respublikada so'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga ularning soni **6 870,5 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **94,2 ming nafarga**, yoki **1,4 % ga** oshgan. Jami o'quvchilar sonida qiz bolalar ulushi **48,8 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **51,2 % ni** tashkil etgan.



Yuqorida ko'rsatilgan davrda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan qiz bolalar soni **49,6 ming nafarga**, yoki **1,5 % ga** oshgan, o'g'il bolalar soni esa **44,6 ming nafarga**, yoki **1,3 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
O'zbekiston Resp.	6 870,5	100	3 355,1	3 515,4	48,8	51,2
Qoraqalpog'iston Resp.	375,5	5,5	185,6	189,9	49,4	50,6
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	634,7	9,2	310,8	323,9	49,0	51,0
Buxoro	348,4	5,1	169,2	179,2	48,6	51,4
Jizzax	284,6	4,1	138,1	146,5	48,5	51,5
Qashqadaryo	688,1	10,0	336,5	351,6	48,9	51,1
Navoiy	195,7	2,8	96,3	99,4	49,2	50,8
Namangan	571,3	8,3	279,2	292,1	48,9	51,1
Samarqand	814,2	11,9	398,6	415,6	49,0	51,0
Surxondaryo	572,8	8,3	281,8	291,0	49,2	50,8
Sirdaryo	165,1	2,4	80,3	84,8	48,6	51,4
Toshkent	547,2	8,0	267,0	280,2	48,8	51,2
Farg'ona	733,4	10,7	359,5	373,9	49,0	51,0
Xorazm	377,4	5,5	185,7	191,7	49,2	50,8
Toshkent sh.	562,1	8,2	266,5	295,6	47,4	52,6

2025/2026- o'quv yili boshiga o'quvchilar sonining eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand (**814,2 ming nafar**), Farg'ona (**733,4 ming nafar**) va Qashqadaryo (**688,1 ming nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**165,1 ming nafar**), Navoiy (**195,7 ming nafar**) va Jizzax (**284,6 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan.


O'zbekistonning barcha hududlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan biroz yuqori bo'lgan. Toshkent shahrida o'g'il va qiz bolalar soni o'rtasidagi tafovut eng sezilarli bo'lib, mos ravishda **52,6 % ni** va **47,4 % ni** tashkil etgan. Qolgan hududlarda esa o'g'il va qiz bolalar nisbati bir-biriga yaqin bo'lgan.

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining I sinfiga qabul qilingan o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda)

2025/2026- o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining I sinfiga qabul qilingan o'quvchilar soni (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda) **725,3 ming nafarni** tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **46,4 ming nafarga**, yoki **6,8 % ga** ko'p bo'lgan. I sinfiga qabul qilingan o'quvchilar umumiy sonida qiz bolalar ulushi **48,0 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **52,0 % ni** tashkil etgan.

I sinfga qabul qilingan o'quvchilar soni

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar
va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda, tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining I sinfiga qabul qilingan qiz bolalar soni **21,4 ming nafarga**, yoki **6,6 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **25,0 ming nafarga**, yoki **7,1 % ga** oshgan.

I sinfga qabul qilingan o'quvchilar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar
va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda, 2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	I sinf o'quvchilari soni, jami	umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
O'zbekiston Resp.	725,3	100	347,8	377,5	48,0	52,0
Qoraqalpog'iston Resp.	36,5	5,0	17,9	18,6	49,0	51,0
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	67,8	9,4	32,5	35,3	47,9	52,1
Buxoro	37,0	5,1	17,6	19,4	47,6	52,4
Jizzax	31,3	4,3	14,9	16,4	47,6	52,4
Qashqadaryo	72,7	10,0	34,4	38,3	47,3	52,7
Navoiy	21,0	2,9	10,1	10,9	48,1	51,9
Namangan	63,2	8,7	30,2	33,0	47,8	52,2
Samarqand	87,6	12,1	42,1	45,5	48,1	51,9
Surxondaryo	61,7	8,5	29,8	31,9	48,3	51,7
Sirdaryo	17,0	2,3	8,2	8,8	48,2	51,8
Toshkent	56,7	7,8	27,3	29,4	48,1	51,9
Farg'ona	78,3	10,8	37,4	40,9	47,8	52,2
Xorazm	38,2	5,3	18,4	19,8	48,2	51,8
Toshkent sh.	56,3	7,8	27,0	29,3	48,0	52,0

2025/2026- o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining I sinfiga qabul qilingan o'quvchilar sonining (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilari hisobga olinmagan holda) eng yuqori ko'rsatkichi Samarqand (**87,6 ming nafar**), Farg'ona (**78,3 ming nafar**) va Qashqadaryo (**72,7 ming nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**17,0 ming nafar**), Navoiy (**21,0 ming nafar**) va Jizzax (**31,3 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)

[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[I – IV sinf o'quvchilari soni](#)


[V – IX sinf o'quvchilari soni](#)

[X – XI sinf o'quvchilari soni](#)

IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2025- yilda O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **506,1 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan ularning soni **14,0 ming nafarga**, yoki **2,7 % ga** qisqargan. Shuningdek, 2025- yilda XI sinf bitiruvchilari soni 2024- yilga nisbatan **46,6 ming nafarga**, yoki **11,5 % ga** oshgan va **452,5 ming nafarni** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilari sonidan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litseylar, politexnikumlar, texnikumlar va boshqa ta'lim tashkilotlarida o'qishni davom ettirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025- yil uchun, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari		XI sinf bitiruvchilari	
	jami	umumiy soniga nisbatan % da	jami	umumiy soniga nisbatan % da
O'zbekiston Resp.	506,1	100	452,5	100
Qoraqalpog'iston Resp.	28,4	5,6	25,6	5,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	47,8	9,5	39,6	8,7
Buxoro	25,5	5,1	23,4	5,2
Jizzax	20,3	4,0	17,6	3,9
Qashqadaryo	47,7	9,4	44,6	9,9
Navoiy	17,4	3,4	13,4	3,0
Namangan	39,0	7,7	37,2	8,2
Samarqand	57,8	11,4	51,6	11,4
Surxondaryo	41,0	8,1	35,8	7,9
Sirdaryo	12,3	2,4	11,0	2,4
Toshkent	39,1	7,7	35,4	7,8
Farg'ona	48,7	9,6	47,1	10,4
Xorazm	32,8	6,5	29,0	6,4
Toshkent sh.	48,3	9,6	41,2	9,1

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p soni Samarqand (**57,8 ming nafar**), Farg'ona (**48,7 ming nafar**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**48,3 ming nafar**) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Sirdaryo (**12,3 ming nafar**), Navoiy (**17,4 ming nafar**) va Jizzax (**20,3 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan. XI sinf bitiruvchilari soni bo'yicha ham Samarqand (**51,6 ming nafar**), Farg'ona (**47,1 ming nafar**) va Qashqadaryo (**44,6 ming nafar**) viloyatlari yetakchilik qilgan bo'lsa, Sirdaryo (**11,0 ming nafar**), Navoiy (**13,4 ming nafar**) va Jizzax (**17,6 ming nafar**) viloyatlarida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

V. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan o'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz) **577,7 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yili boshiga nisbatan **12,8 ming nafarga**, yoki **2,3 % ga** oshgan. O'qituvchilar umumiy sonida (o'rindoshlarsiz) ayollar ulushi **72,5 % ni**, erkaklar ulushi esa **27,5 % ni** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Yuqorida ko'rsatilgan davrda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan ayol o'qituvchilar soni **17,5 ming nafarga**, yoki **4,4 % ga** oshgan bo'lib, **418,8 ming nafarni** tashkil etgan. Erkak o'qituvchilar soni esa, aksincha, **4,7 ming nafarga**, yoki **2,9 % ga** qisqargan bo'lib, **158,9 ming nafarni** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	Umumiy soniga nisbatan % da	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Resp.	577,7	100	418,8	158,9	72,5	27,5
Qoraqalpog'iston Resp.	40,7	7,0	31,0	9,7	76,2	23,8
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	46,3	8,0	36,2	10,1	78,2	21,8
Buxoro	33,4	5,8	26,3	7,1	78,7	21,3
Jizzax	25,7	4,4	15,1	10,6	58,8	41,2
Qashqadaryo	65,1	11,3	42,1	23,0	64,7	35,3
Navoiy	22,3	3,9	17,3	5,0	77,6	22,4
Namangan	42,6	7,4	31,8	10,8	74,6	25,4
Samarqand	65,1	11,3	43,3	21,8	66,5	33,5
Surxondaryo	52,3	9,0	31,9	20,4	61,0	39,0
Sirdaryo	14,2	2,4	9,3	4,9	65,5	34,5
Toshkent	40,2	7,0	30,7	9,5	76,4	23,6
Farg'ona	60,6	10,5	46,8	13,8	77,2	22,8
Xorazm	35,1	6,1	27,7	7,4	78,9	21,1
Toshkent sh.	34,1	5,9	29,3	4,8	85,9	14,1

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan o'qituvchilar sonining (o'rindoshlarsiz) eng yuqori ko'rsatkichlari Samarqand (**65,1 ming nafar**), Qashqadaryo (**65,1 ming nafar**) va Farg'ona (**60,6 ming nafar**) viloyatlarida qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**14,2 ming nafar**), Navoiy (**22,3 ming nafar**) va Jizzax (**25,7 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan.

Ayol o'qituvchilarning eng yuqori ulushi Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lib, **85,9 % ni** tashkil etgan. Jizzax viloyatida esa ushbu ko'rsatkich nisbatan past bo'lgan va **58,8 % ni** tashkil etgan. Qolgan hududlarda ayol o'qituvchilar ulushi **61,0 % dan 78,9 % gacha** farqlangan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'qituvchilar soni \(jami o'rindoshlarni qo'shgan holda\)](#)

VI. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishiga, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishiga hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishiga qaratilgan. U umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz, majburiy o'n bir yil davomida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi va uch bosqichdan (I – XI sinflar) iborat: boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar) va o'rta ta'lim (X – XI sinflar).

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1 umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining asosiy maqsadlari – o'quvchi shaxsining umumiy madaniyatini shakllantirish, uni jamiyat hayotiga moslashtirish, kasbiy ta'lim dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik o'zlashtirish uchun asos yaratish, shuningdek, jamiyat, oila va davlat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.

Nodavlat umumta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilingan soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga o'quv yili boshiga ro'yxatda turgan va umumta'lim muassasalarining boshlang'ich, tayanch o'rta hamda o'rta ta'lim bosqichlarida tahsil olayotgan shaxslar, shuningdek, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar o'quvchilari kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ushbu ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma)lar olgan shaxslar soni.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

